

AVTOMOBIL YO'LLARINING TURLARI VA TASNIFI

Xalimov Daler Xusan og'li

Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

mahmudovmuhammadbey@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtomobil yo'llari haqida umumiy tushunchalar va ular qanday ko'rsatkichlarga qarab turlarga bo'linishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Avtomobil yo'li, magistral yo'llar, avtomagistral yo'llar, xalqaro ahamiyatidagi yo'llar, davlat ahamiyatidagi yo'llar, mahaliy ahamiyatidagi yo'llar.

Avtomobil yo'li - avtomobil transporti qatnoviga mo'ljallangan muhandislik inshooti hisoblanib avtomobil yo'li ahamiyatiga qarab xalqaro, davlat (respublika) va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llarga bo'linadi. Xalqaro avtomobil yo'lga mamlakatlarni, yirik sanoat markazlarini bog'lovchi va katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan yo'llar kiradi. Davlat ahamiyatidagi yo'llarga yirik sanoat markazlari, muhim temir yo'l stansiyalari, bog'lovchi yo'llar kiradi. Mahalliy yo'llarga esa viloyat, qishloq, jamoa xo'jaliklari yo'llari kiradi.[4,] Avtomobil yo'li muhandislik inshooti sifatida quyidagi elementlardan tashkil topadi: yer poyi ko'tarmasi; yo'l to'shamasi; qatnov qismi; yo'l cheti; sun'iy va chiziqli inshootlar va boshqa jihozlar bilan jihozlangan. Avtomobil yo'li tabiiy yoki tuproq ko'tarmasi, asos va qoplamalardan iborat. Avtomobil yo'li qurilishida sun'iy inshootlar (tonnellar, ko'priklar, tayanch devorlar, himoya yo'laklari) barpo etiladi. Avtomobil yo'lida suv o'tkazuvchi va drenaj qurilmalari bo'ladi. Harakat xavfsizligini ta'minlash uchun yo'l belgilari, ko'rsatkichlar, himoya vositalari va transport oqimini boshqarish qurilmalari o'rnatiladi. Shuningdek, avtomobil yo'lida texnika xizmati ko'rsatuvchi stansiyalar, yonilg'i stansiyalari va boshqa inshaotlar joylashtiriladi.[1]

Avtomobil yo'llarining turlari va tasnifi, qurilish me'yori qoidalariga asosan avtomobil yo'llari butun uzunligi yoki ayrim qismlarining xalq xo'jaligidan ma'muriy ahamiyati va vazifasiga ko'ra belgilanishiga qarab darajalarga bo'linadi.

1-tezkor avtomobil magistrallari: xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan I-A darajali yo'l. Uzoq masofada tezkor aloqaga mo'ljallangan. Mustaqil davlatlar poytaxtlarini, yirik shaharlarni, respublikadagi sanoat markazlarini birlashtiradi. Katta tezlikni va qulaylikni harakat xavfsizligini hisobga olgan holda harakat jadalligini o'tkazishni ta'minlaydi.

2-magistral yo'llar: xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan I-B, II-A, III-A darajali yo'l. (A) nisbatan harakat tezligi yuqori va transit harakatlar uchun eng kam qiyinchilik tug'dirish uchun mo'ljallangan. Respublikaning sanoat, ma'muriy va madaniy ishlab chiqarish markazlari orasini shuningdek qo'shni davlatlar bilan transport aloqasini ta'minlaydi. Harakat xavfsizligi va yuqori tezligi ta'minlanadi.[2]

3-magistral yo'llar: xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan II-B, III-B darajali yo'l. Harakat xavfsizligi sharoitini yaratgan holda turli transport vositalari, avtomobillari, trolleybuslar, g'ildirakli traktorlar uchun mo'ljallangan. Respublikaning yirik va kichiklik markazlari, tezkor magistral yo'llar orasidagi harakat xizmat qiladi. Mintaqada harakatning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda ehtiyojini ta'minlaydi.

4-yirik shaharlar atrofidagi aylanib o'tish va halqa magistrallar xalqaro ahamiyatga ega I-A, II-B, III-B darajali yo'l. (A) transit avtomobillarning shaharlarda aylanib o'tishi uchun mo'ljallangan. Mahalliy transport vositalari harakatiga ruxsat etilmaydi. Avtomobil yo'llarining kesishish va qo'shilishlari turli sathda qisman loyihalsh texnik iqtisodiy hisoblarga asosan bajariladi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan II-B darajali yo'l transit avtomobillar shaharlarni aylanib o'tirishi uchun mo'ljallangan mahalliy transport vositalari harakatiga ruxsat etiladi. Qo'shilish va kesishish ko'pincha bir sathda loyihalanadi.[5]

5-aerportlarga, temir yo'l vokzallariga va boshqalarga kirish yo'li. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan I-A, II-A darajali yo'l. Yuqori tezlikdagi yengil avtomobillar va avtobuslar harakati uchun mo'ljallangan. Yuqori tezlikni va xavfsiz harakatni ta'minlaydi. Kesishish va qo'shilishlar ko'proq turli sathda loyihlanadi. 1-2-darajali aeroportlarga va 3-4-darajali aeroportlarga kelish yo'llari.

6-mahalliy yo'llar, mahaliy ahmiyatga ega bo'lgan III-B, IV-A, IV-B, V-darajali yo'l. Asosan mahalliy tezligi yuqori bo'lmagan aralash transport ya'ni avtomobillar, avtobuslar, g'ildirakli traktorlar, qishloq xo'jaligi mashinalar harakati uchun alohida xo'jalik va magistral yo'llar orasidagi transport aloqasini ta'mminlaydi. Har bir rivojlangan mamlakat uchun transport kommunikatsiyalari juda kata ahamiyatga ega.[3]

Har qanaday mamlakatning ichki va tashqi avtomobil va aloqa yo'llari eng muhim omil hisoblanadi. Har bir jabhada ishlar avtomobil yo'li aralashuvizis amalaga oshmaydi desam mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakatning iqtisodiy samaradorligida aloqa yo'llarining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Hozirgi davrda mamalakatimizda aloqa yo'llariga ya'ni suv yo'li orqali jahon bozoriga chiqish ishlari yuqori darajada olib borilmoqd. Kelajada albatta buni guvohi bo'lamiz deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SHNQ 2.02.05-02 Avtomobil yo‘llarini loyihalash.
2. P.I.Pospelov i dr. Основы автоматизированного проектирования автомобильных дорог. (на базе программного комплекса CREDO). М. SP «CREDO-Dialog» - ООО. 2007 г.
3. Norenkov I.P. Основы автоматизированного проектирования: Ucheb. Dlya vuzov. – М.: Izd-vo MGTU im. N.E. Baumana, 2000. – 360 s.
4. <https://ru.wikipedia.org>
5. www.road.com